# BUXGALTERIYA BALANSI ASOSIDA KORXONANING MOLIYA-XO‘JALIK FAOLIYATINI TAHLIL QILISH

**Turayeva Gulizahro**
*Guliston Davlat Universiteti o’qituvchisi*

**Uzoqov Mamurjon**
*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Umarov Abbos**
*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Xudoyqulov Ro‘zibek**
*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

***Annotatsiya*** *Ushbu maqolada korxonaning* moliyaviy-*iqtisodiy* holatini tahlil *qilishning ahamiyati muhokama qilinadi. Buxgalteriya balansida korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida katta hajmdagi ma’lumotlar: korxonaning mulkiy holati, moliyaviy resurslarning mavjudligi, ularning taqsimlanishi va foydalanilishi, moliyaviy natijalar(foyda)ning kapitalizatsiyasi, o‘z va qarz mablag‘lari, pul mablag‘larining mavjudligi va holati, debitorlik va kreditorlik qarzlarining holati, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarning holati va o‘zgarishi va shu kabilar haqida ma’luomtlar taqdim qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *korxonaning* moliyaviy holatini,balans,likvidlik, *Aktiv va passiv, debitorlik qarzlari, materiallar.*

## *Kirish*

Korxonaning maqsadi *moliyaviy* ahvolni buxgalteriya balansi asosida dastlabki baholash hisobot yili oxiriga bo`lgan balans moddalarini yil boshiga bo`lgan ma'lumotlar bilan taqqoslash yo`li orqali amalga oshiriladi. Balansni tahlil qilishda uning tuzilmasi aniqlanadi va korxona mablag`lari hamda ularning manbalari tarkibida sodir bo`lgan o`zgarishlar o`rganiladi, mablag`larni qanchalik to`g`ri joylashtirilganligi aniqlanadi va korxona moliyaviy holatiga dastlabki baho beriladi.

## *Muhokamalar va natijalar*

Korxona rahbarlari buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotning boshqa shakllarida keltirilgan ma’lumotlardan foydalana olishi, ularni o‘qiy olishi, ulardagi ma’lumotlardan foydalangan holda har bir hisobot moddasi orqasidagi korxonaning haqiqiy holatini ko‘ra olishlari, mablag‘lar qaerdan kelib tushganligi va ular qaerda joylashganligini hamda ularning normal ish faoliyati uchun yetarliligi baholay olishlari kerak. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning to‘laqonli faoliyat yuritishi va doimiy iqtisodiy o‘sishi uchun doimiy ravishda uning moliya-xo‘jalik holatini tahlil qilish va baholash zarur. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning moliya-xo‘jalik holati haqidagi hisobot ma’lumotlarini muntazam kuzatib borish korxonaga iqtisodiy siysatini o‘z vaqtida tuzatishlar kiritib borishiga imkon beradi. Shunday tahlil qilinadigan va baholanadigan hujjatlardan birimoliyaviy hisobotda asosiy o‘rin

egallaydigan asosiy shakllaridan biri hisoblangan buxgalteriya balansidir. Qonunchilikka ko‘ra xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar belgilangan muddat va hajmlarda moliyaviy hisobotlarni taqdim qilishlari, shuningdek bundan hisobotlarni taqdim qilish va ayrim moddalarini baholashda zarur talablarga rioya qilishga majburdirlar.

O‘zbekistonlik mutaxassislar, jumladan R.D.Dusmuratovning ishlarida buxgalteriya balansi ikkita bo‘limdan: aktiv va passivdan iborat bo‘lib, balans aktivi o‘z navbatida uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar, passivi esa o‘z mablag‘lari manbalari va majburiyatlardan iborat. Buxgalteriya balansi-1 rasm.

--




Buxgalteriya balansi bo‘limlari va moddalarining joylanishining o‘ziga xos qat’iy qonuniyatlari mavjud. Buxgalteriya balansining tarkibiy tuzilishi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi 140-son “Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

***Xulosa***

Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya balansining tuzilishi bo‘yicha mutaxassislar fikr bildirishda o‘z davlatining buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar talablarini e’tiborga olishga harakat qilishgan.Hozirigi kunda O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mos keladigan balans-netto shaklidan foydalanmoqda.

O‘tkazilgan tadqiqot natijaslarini umumlashtirgan holda iqtisodiy adabiyotlarda buxgalteriya balansini turkumlashning belgilari bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emasligi haqida xulosa qilish mumkin. Buxgalteriya balansini turkumlash belgilari va turlari bo‘yicha har bir muallifning o‘ziga xos qarashi mavjud. Har bir davrda buxgalteriya balansini turkumlash belgilari axborotlarni shakllantirish va umumlashtirish tlablari va printsiplariga javob bergan bo‘lsada, jamiyat rivojlanishini bilan birgalikda buxgalteriya hisobining kuzatuv ob’ektlari, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar ma’lumotlarini shakllantirishga yondashuvlar o‘zgardi va shundan kelib chiqqan holda buxgalteriya balanslarini turkumlash belgilari ham o‘zgarishlarga uchradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. A.B.Muxametov. B.Matrasulov.G.Turayeva T.:Buxgalteriya hisobi darslik. Ziyo nashr. 2023.-347 b
2. A.B.Muxametov. U.Chorshanboyev. G.Turayeva T.:Boshqaruv hisobi darslik. . Ziyo nashr. 2024.-169 b
3. Gulizahro, T., & Jaloliddin, X. (2023). SANOAT KORXONALARINI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALAR O'RNI. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, *1*(6), 219-221.
4. Gulizahro, T., Eldor, T., Asilbek, S., & Muhammadqodir, B. (2023). Asosiy vositalar hisobi va ulardan samarali foydalanish tahlili. *" Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari" mavzusidagi onlayn konferensiyasi*, *2*(10), 67-69.
5. Taxirovna, A. S. (2024). Features of Uzbek and English story translations. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(2), 202-208.
6. Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023, April). BILINGVIZM TURLARI VA IKKINCHI TIL LEKSIK BAZASI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
7. Israilova, S. (2023). THE PRAGMATIC OCCURRENCE AND MENTAL PROPERTIES OF COLOR COMPONENT UNITS IN CONTEXT. Interpretation and researches, 1(5).
8. Abdurahmanova, M., & Olimova, M. (2022). KORPUS LINGVISTIKASINING AHAMIYATI. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
9. Abdurahmanova, M., & Olimova, M. (2022, June). TEZAURUSDAGI O 'ZARO BOG 'LANISHLAR. In «УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ ВОПРОСЫ" Международная научно-практическая конференция (Vol. 1, No. 1).
10. Tursunaliyevna, A. M. (2022). TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YO'NALISHLAR. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 1(2), 113-116.
11. Abdurahmanova, M., & Rayimjonova, M. (2021). KORPUS LINGVISTIKASIDA TARJIMASHUNOSLIK MASALASI. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
12. Tursunaliyevna, A. M. (2022). EKOLINGVISTIKA TILSHUNOSLIKNING YANGI SOHASI SIFATIDA. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 1(2), 82-84.

13. Abdurahmanova, M. T. (2023). OMONIMLARNI FARQLASH USULLARINING SUN'IY INTELLEKT VA MASHINA TARJIMASIDAGI O 'RNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 241-248.
14. Tursunaliyevna, A. M. (2023, May). OMONIMLAR VA SUN'IY INTELLEKT. In International Congress on Models and methods in Modern Investigations (pp. 48-51).
15. Saodat, I. "Ko 'k" leksemasining etimologik tavsifi. O 'ZBEKISTON, 75.
16. Israilova, S. (2022). "KO 'K" LEKSEMASI SEMANTIKASINI YORITISHDA TEZAURUS MODELIDAN FOYDALANISH. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
17. Turayeva, G., Sherxonov, A., Abduhalilov, A., Xusanov, X., & Rahmonqulov, H. (2023). SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR TASNIFI, TURLARI HAMDA HISOBGA OLISH VAZIFALARI. *Наука и технология в современном мире*, *2*(14), 46-48.